

AMIR OLIMXON – SO'NGGI BUXORO AMIRI

Abduvohidova Ruxshona Doniyorbek qizi,

Namangan davlat universiteti, Tarix yo'nalishi talabasi

E-mail: ruxshona01062005@gmail.com

Tel: +998931021725

Ilmiy rahbar: Madraximov Zoxid Sharofovich,

Namangan davlat universiteti, Tarix kafedrası dotsenti, t.f.n.

Annotatsiya:

Ushbu maqolada O'zbek davlatchiligi tarixida muhim o'rin egallagan Buxoro amirligining so'nggi amiri – Sayyid Olimxonning faoliyati, taxtga o'tirganidan keyin boshlangan ziddiyatli holatlar, Buxoro amirligining tugatilish jarayoni haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar:

Amir Sayyid Olimxon, To'rajon, Amir Abdulahadxon, Yangi Buxoro, Termiz, Chorjo'y, M.V.Frunze, Chubek, Omonulloxon, Qal'ayi Fatu, leyb-gvardiya, faxriy qorovullari – “pajlar” .

Аннотация:

В статье представлена информация о деятельности последнего эмира Бухарского эмирата Сайида Олимхана, занявшего важное место в истории узбекской государственности, о конфликтных ситуациях, возникших после его восшествия на престол, и о процессе ликвидации Бухарского эмирата.

Ключевые слова:

Амир Сайид Олимхан, Тораджон, Амир Абдулахадхан, Новая Бухара, Термез, Чорджой, М.В. Фрунзе, Чубек, Амонуллохан, Калайи Фату, лейб-гвардия, почётные караулы – «пажи».

Article:

This article provides information about the activities of the last emir of the

Bukhara emirate, Sayyid Olimkhan, who occupied an important place in the history of Uzbek statehood, the conflicting situations that began after his accession to the throne, and the process of the liquidation of the Bukhara emirate.

Amir Sayyid Olimkhan, Torajon, Amir Abdulahadkhan, New Bukhara, Termez, Chorjoy, M.V.Frunze, Chubek, Amonullokhan, Qalayi Fatu, life guards, guards of honor - "pages".

Tarixda shunday shaxslar borki, ularning hayoti doimiy ravishda muhokamalarga sabab bo'ladi. Bugungi kunda hukumatimiz tomonidan Vatanimiz tarixini o'rganishga berilayotgan e'tibor tufayli yurtimiz tarixini turli davrlari, tarixiy shaxslar hayoti va faoliyati borasida yangi ma'lumotlar e'lon qilina boshlandi. Biroq, Buxoroning so'nggi amiri Said Olimxon hayoti, siyosiy faoliyati, o'tkazgan islohotlari haqidagi ma'lumotlar haligacha yetarlicha ochib berilmayapti. Yoxud haqiqatga to'g'ri kelmaydigan holatda talqin qilinmoqda. Vaholanki, bu borada olib borilgan so'nggi tadqiqotlar voqealikka boshqa tomondan qarashga imkon beradi.

Said Olim To'ra 1881-yil 3-yanvarda Buxoro amirligining Karmana bekligidagi Olchin saroyida dunyoga kelgan. Olimxonning to'liq ismi Said Mir Muhammad Olimdir. Olimxonni yoshligidan "To'rajon" deb erkalashgan. Onasining ismi Davlat Baxt oyim bo'lgan.

Amir Said Olimxon oilada ikkinchi farzand edi. Otasi Amir Abdulahadxon tomonidan Olimxonning akasi Said Mir Abdulloh taxt vorisi etib tayinlangani sababli hech kim Olim To'raning taxtga o'tirishini kutmagandi. Ammo 1888-yilda Said Mir Abdullohning kutilmaganda bezgak bilan kasallanib, vafot etishi Said Olimxonga taxt uchun yo'l ochadi.

Amir Abdulahadxon o'g'lining zamonaviy ta'lim olishi va taxt vorisi sifatida Rossiya tomonidan e'tirof etilishini xohlardi. 1893-yilda Peterburgga tashkil etilgan ilk safarida Aleksandr III Olimxonni Buxoro taxti vorisi sifatida e'tirof etishiga erishadi.

Olimxon 13 yoshida otasi amir Abdulahadxon buyrug'i bilan harbiy ta'lim olish uchun Peterburgga jo'naydi. Uch yil davomida harbiy muhandislik bo'yicha bilim oladi. Aslida o'qish davri yetti yil bo'lsa-da, otasining xastaligi sabab bu muddat qisqartirildi. Olimxonning ta'lim olish uchun Peterburgga yuborilishi uning merosxo'r etib tanlanishining natijasi edi. Chunki, Rossiya imperiyasiga qaram Buxoro amirligi uchun rus podshohi tomonidan valiahdning tasdiqlanishi o'sha davr taqozosiga ko'ra majburiy edi.

Olimxon Nikolayev kadet korpusida imperatorning faxriy qorovullari – “pajlar” bo'limida o'qishni boshlaydi. Olimxon rus zodagonlari ta'lim oladigan maktabga o'qishga qabul qilinadi va bir muddat o'tgach, harbiy qismga olib ketiladi. Bu qismda harbiy tayyorgarlikdan tashqari saroy qorovuli vazifasini ham bajaradi. Harbiy xizmatni muvaffaqiyatli tamomlab, kazaklardan tashkil topgan leyb-gvardiya polkiga komandir etib saylandi.

Buxoro taxtiga o'tirgach, Olimxonning xuddi Peterburgdagi kabi qo'riqchilar polkini tuzgan. Bu qo'riqchilar polki amirning xizmatidagi qullardan iborat edi. Olimxon olgan ta'lim uning hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Rossiyada uch yil o'qigach, 1896-yil 7-mayda diplom olib otasi yoniga qaytadi. Said Olimxon otasidan iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy masalalarini o'rganadi. Otasi buyrug'iga binoan, 1898-yil Buxoro amirligining Qarshi bekligiga hokim qilib tayinlanadi.

Olimxonning Qarshidagi beklilik davrini uning o'g'li Sayyid Mansur Olimiy o'zining “Buxoro – Turkiston beshigi” risolasida quyidagicha ta'riflaydi: “O'n ikki yillik hukmronligi davrida Qarshi nahri ustiga ko'priq qurdirdi, madrasa barpo etdi”.

Olimxon otasining sog'ligi yomonlashishi munosabati bilan, Karmanaga hokim etib tayinlanadi. Oradan ikki yil o'tgach, Abdulahadxon vafot etadi va Olimxon Buxoro amirligining yangi rahbariga aylanadi. Bu haqda o'sha davrdagi Niva gazetasining 1911-yil 3 sonida ham e'lon qilingan [4.].

Shu tariqa Amir Said Olimxon Buxoro amirligini boshqarishga kirishadi.

Olimxon Sankt-Peterburgda rus va Yevropa madaniyatlari bilan ma'lum darajada tanishish imkoniga ega bo'lgani uchun jamoatchilik va ziyolilar u mamlakatda islohotlar o'tkazishidan umidvor edi.

Chunonchi, Olimxon taxtga o'tirgach bir qator islohotlarni amalga oshiradi. 1910-yil 29-dekabrda Arkdagi yig'inda vazir Nizomiddin Urganjiy amirning birinchi farmonini yig'ilganlarga o'qib eshittiradi. Farmon asosan soliq tizimi va harbiy sohani rivojlantirishga qaratilgan islohotlar, poraxo'rlik va tamagirlikni taqiqlashga doir ko'rsatmalardan iborat edi.

Farmon 4 banddan iborat bo'lib, Abdurauf Fitrat bu haqida o'zining "Amir Olimxonning hukmronlik davri" asarida quyidagilarni keltirib o'tadi:

- 1) Saroyning tortiq va peshkashlarini man etish;
- 2) Farsax(tosh) puli solig'ini tayinlash;
- 3) Yer solig'ini o'ndan bir hissaga kamaytirish;
- 4) Harbiylar oylik maoshini oshirish.

Bundan tashqari, amir Olimxon 1911-yil mart oyida "Juda isrofli to'ylarni tugatish to'g'risida" ham qaror chiqardi. Bu haqda "Turkestanskiy vedomosti" gazetasining 1911-yil 28-aprelda chiqqan 92 sonida shunday deyilgan: "To'ylarda palovdan boshqa ovqat berganlarga 75 darra jazosi tayinlanib, sunnat va nikoh to'ylarida tashkil qilinadigan uloq chopish va poyga tadbirlari bekor qilinsin. Amal qilmaganlar o'lim jazosiga mahkum etilsin. Bundan tashqari to'ylarga kelgan mehmonlarga ziyofatdan tashqari to'n kiydirish udumi taqiqlab qo'yilsin. Qiz olganda beriladigan, oddiy xalq uchun og'ir mahr pullari miqdori kamaytirilsin".

Xuddi shu yili amir Olimxon ta'lim islohotiga ham qo'l uradi. O'sha davr matbuoti bo'lmish "Tarjimon" gazetasining 1911-yil 18-martdagi 12-sonida amir buyrug'idan parcha keltiriladi: "Madrasa talabalariga turli "Hoshiya"lar o'qitilmasin. Tafsir va hadis rasmiy dars sifatida o'qitilsin. Vaqflardan yig'ilgan pullarga mamlakatning turli yerlarida maktablar qurilsin hamda ularga muallimlar tayinlansin. Maktab muallimi olim, xushxat va xushqiroat bo'lsin va ularga maktablarning vaqflaridan tashqari davlat xazinasidan yillik 120 tanga maosh

tayinlansin. Tahsil uchun bolalardan pul olinmasin. Maktablarga bir nozir tayinlansin va u har oy maktabni taftish qilib, amirga hisobot bersin”.

Yuqoridagi faktlardan kelib chiqilsa, amir Said Olimxon sovet davri adabiyotlari va hozirgi ayrim “tarixchilar” tomonidan talqin qilingandek maishatparast, qo‘rqoq, xudbin emas, balki qaysidir ma’noda xalq holiga befarq bo‘lmagan hukmdor sifatida gavdalanadi[4].

Ijtimoiy-siyosiy harakat sifatida paydo bo‘lgan “Yosh buxoroliklar” partiyasi 1910-yildayoq o‘zlarini alohida tashkilot sifatida e’lon qilgan edilar. Buxorodagi jadidchilik harakatidan o‘rib chiqqan “Yosh buxoroliklar” ning faoliyati 1917-yilga kelib ancha kuchaygan edi. Shu yilgi fevral inqilobi Buxoro amirligiga ham ta’sir etmay qolmadi. Mart oyining boshlarida Yangi Buxoro, Termiz, Chorjo‘y va Karkida ishchi, soldat va dehqon sovetlari tuzildi. Bunday sharoitda “Yosh buxoroliklar” mavjuda monarxiya tuzumi doirasida demokratik islohotlar o‘tkazish, konstitutsion monarxiyani o‘rnatish orqali amirning mutlaq hokimiyatini cheklab qo‘yish tarafdori bo‘ldilar.

Demokratik kuchlarga tayangan “Yosh buxoroliklar”ning qat’iy talablari asosida Buxoro amiri Sayid Olimxon 1917-yil 7-aprelda mamlakatda islohotlar o‘tkazish to‘g‘risida farmon chiqaradi. Ushbu islohotlar amirlikdagi o‘rta asrlar boshqaruv tizimiga o‘zgartirishlar kiritish, amaldorlarni saylab qo‘yish tizimiga o‘tish, amirlik poytaxtida amaldorlar, savdogarlar va dindorlar tarkibida shahar xo‘jaligi, xalq ta’limi va sog‘likni saqlashni boshqarish uchun majlis tuzish, shariatni adolatni amalga oshiruvchi va soliqlarni muqobillashtirib turuvchi yagona huquq sifatida e’tirof etish, aniq davlat byudjeti o‘rnatish, savdo-sotiqni har tomonlama rivojlantirish, aniq fanlarni rivojlantirish kabilar ko‘zda tutilgan edi. Ammo, bu islohot amalda joriy etilmadi.

1917-yil 9-aprelda jadidlar Buxoro shahrida islohotlarni hayotga tatbiq etishni talab qilib namoyish o‘tkazadilar. Ammo, namoyishchilar amir hukumati tomonidan tarqatilib yuboriladi va “Yosh buxorolik”larning ko‘pchiligi jazolanib,

ta'qib ostiga olinadi. Bu voqealardan so'ng, 14-aprelda amir Olimxon islohotlar o'tkazishni rad etdi.

Oktabr' inqilobidan so'ng sovet Rossiyasi bilan Buxoro amirligi o'rtasidagi munosabatlar keskinlashib ketdi. Turkiston Respublikasining bolsheviklardan iborat rahbariyati Buxoro amirligining mustaqilligini rasman tan olishiga qaramay, amalda uning ichki ishlariga doimiy ravishda aralashib turgan. Bu paytga kelib "Yosh buxorolik"lar partiyasi ichida turli guruhlarining mavjudligi, qarashlarning xilma xilligi tufayli partiyaning yagona dasturini tuzishga ehtiyoj paydo bo'ldi. "Yosh buxorolik"lar partiyasining markaziy komiteti bu vazifani 1917-yil noyabrda Fitratga topshirdi. Abdurauf Fitrat tomonidan tayyorlangan "Yosh buxoroliklar" partiyasining Dasturi 1918-yanvarida partiyaning markaziy komiteti tomonidan tasdiqlangan va islohot loyihasi sifatida e'lon qilingan.

Ushbu dasturda Buxoro amirligida konstitutsion monarxiya o'rnatish, Buxoroning iqtisodiy, siyosiy va harbiy mustaqilligini ta'minlash, madaniy taraqqiyotga erishish, dehqonchilik va soliq tizimiga alohida e'tibor qaratish, Buxoroda zamonaviy armiyani tashkil etish, 2 yillik majburiy harbiy xizmatni joriy etish, davlat hisobidan maktablar va oliy o'quv yurtlari ochish kabi masalalarga alohida e'tibor qaratish zarurligi ta'kidlangan edi. Shuningdek ushbu loyihada Buxoroda 10 ta nozirlikdan iborat Nozirlar Sho'rosi tuzish taklif etildi.

Turkiston XKS Buxoro amirligiga qarshi zimdan kurash olib bordi, amir hukumatini kuch bilan ag'darib tashlashga urindi hamda bolsheviklar shu maqsadni ko'zlab buxorolik jadidlarni qo'llab-quvvatladilar. 1918-yil mart oyida Turkiston o'lkasi XKS raisi F.Kolesov boshchiligidagi qizil askarlar Buxoro shahriga hujum qildilar. Ushbu hujum muvaffaqiyat bilan tugamagan bo'lsa-da, Buxorodagi siyosiy tuzumni o'zgartirish uchun harakat to'xtamadi. Sayid Olimxon esa Buxoro jadidlarini kuchli ta'qib ostiga oldi. Natijada buxorolik jadidlar Samarqand, Toshkent va Moskvaga jo'nab ketishga majbur bo'ldilar. 1920-yil 13-14-iyunda "Yosh buxoroliklar" partiyasining Turkiston markaziy byurosi birlashgan konferensiyasida Fayzulla Xo'jayev tuzgan Dastur qabul qilindi. Ushbu

dasturda amirlikni kuch bilan ag'darib tashlash va Buxoroni Demokratik xalq respublikasi deb e'lon qilish talabi qo'yildi. "Yosh buxoroliklar" yirik boylar qo'lidagi yerlarni musodara qilish, bepul boshlang'ich ta'lim joriy etish, qishloq xo'jaligi, hunarmandlar sanoati, ichki va tashqi savdoning ahvolini yaxshilash yo'lida amaliy chora tadbirlar ko'rish zarurligini ta'kidlagan edilar. 1920-yilning 2-sentyabrida M.Frunze boshchiligidagi qizil armiyaning shafqatsiz hujumlarida so'ng amirlikning poytaxti Buxoro shahri bosib olindi va Amir Olimxon taxtdan ag'darildi. Shundan so'ng, qizil armiya amirlikning barcha bekliklarini birin-ketin egallab, amirlikka butunlay barham berdi [1. – B. 487-489].

Amir Sayid Olimxon taxtga o'tirgan chog'idan boshlab, fuqaroparvar, adolatparvar hukm yuritib, bolsheviklarning qonli hamla va hujumidan so'ng, axiyr 1921-yil aprel oyida Afg'onistonga ko'chishga majbur bo'ldi [3. – B. 20].

Amir Sayid Olimxon iloji boricha tarixiy obidalarini, muqaddas joylarni saqlab qolish, katta vayronagarchiliklarni kamaytirish maqsadida shaharni tashlab chiqishga majbur bo'ldi. U M. Frunze huzuriga Nasrullo qushbegi bilan Urganjini elchi qilib yuborib, shaharni bombardimon qilishni to'xtatishni va xalqqa shafqat qilishni talab etdi. Frunze esa elchilarga amir taxtni va butun boyliklarni topshirib shahardan chiqib ketishi lozimligini aytgan. Shunda ilojsiz qolgan Amir 18 moddadan iborat shart qo'yish bilan rozi bo'lib, xazina boyliklarning juda katta ro'yxatini topshirdi. "Buxoro axbori" gazetasining 1921-yil, 1-may sonida bosilgan o'sha shartlarning eng muhimlari quyidagilar edi: "Buxoro mustaqil davlat bo'lib qolishi, Buxorodan Frunze askarlari chiqib ketish, butun boylik va oltin xazinalari Buxoroning yangi davlat rahbarlariga topshirilishi, Buxoro hukumatiga mahalliy millat vakillari rahbar bo'lishi va boshqalar".

Amir shaharni tark etib, qizil askarlar 2-sentabrda Buxoroni egallagach shahar vayron etildi, xalq va amirlikning boylik zaxiralari talandi va Rossiyaga olib ketildi. Buxoroning oltin zaxiralari haqida har xil ma'lumotlar bo'lgan. Yozma manbalarning guvohlik berishicha u Sayid Olimxon nomi bilan bog'liq bo'lsa-da, aslida butun bir Buxoro amirligi, ya'ni o'zbek elining mang'it urug'idan chiqqan

xonlar sulolasi (1753–1920-yillar)ga tengdoshdir. Mang'itlar sulolasi qancha yashagan bo'lsa, oltin zaxirasi ham shuncha yil to'ldirib kelingan. Abdurauf Fitratning yozishicha “Rasman xazinaga mamlakatning mulkiy, harbiy siyosiy ishlarining daxli yo‘q edi”. “Oyna” jurnalida yozilishicha, amir xazinasiga tegishli oltin, kumush va boshqa zeb-u ziynatlarning ro‘yxati yozilgan daftarlar taxlami bir yarim olchin (1 metr) bo‘lgan. Yana o‘sha ma’lumotda ko‘rsatilishicha “Buxoro amirining tasarrufi ostida bo‘lgan xazinaning aqchasi (oltin va kumush) shu darajada mo‘lki, hech bir davlat xazinasida bul darajada ehtiyot saqlangan oltin va kumush pul va yombilar bo‘lmasa kerak. Buxoro Amirining sanochlarida saqlanayotgan oltin va kumush pullar bo‘yi 50 olchin (1 olchin – 70 sm), eni 20 olchin bo‘lgan bir tog‘dan iboratdir. Bu xazinadan tashqari... yana bir yerto‘la xazinasiga bo‘lib, u rus, Buxoro va boshqa bir qancha davlatlarning oltin pullari bilan to‘ldirilgan”.

Keyingi yozma manbalarning guvohlik berishicha, amirning ko‘rsatmasi bilan bosh vazir Mirzo Nasrullohiy qushbegi 1917-yilda maxfiylikda xazinada saqlanayotgan tillo va boshqa qimmatbaho boyliklarning ma’lum bir qismini ro‘yxatga olgan. Mana shu ma’lumotga ko‘ra amir xazinasidagi boyliklarning to‘la bo‘lmagan miqdori quyidagicha bo‘lgan:

Buxoro tillasi – 1.148.380 dona, rus tillasi – 4.365.100 so‘m, yombi holidagi Gamburg tillosi – 1.108 pud (17 tonna 728 kg), yombi holidagi Gamburg kumushi – 2.844 pud (45 tonna 404kg), rus kumush tangalari – 1.385 pud (22 tonna 160 kg), Buxoro tangasi – 62.834.780 dona, Buxoro mis tangasi – 731 pud (5 tonna 696 kg); tilla kukuni – 16 pud (1 tonna 56 kg), rus banki kumushi – 864 pud (13 tonna 724 kg) va hokazo. Yana jami 34 nomdagi qimmatbaho asoriatqalar ro‘yxat qilingan. Shaxsan Amir va uning oilasiga tegishli boyliklar – yirik brilliantlar 3.482 karat, shuningdek buyumlarga tikilgan brilliantlar – 968 karat, buyumlarga tikilgan qimmatbaho toshlar – 8.617 karat va hokazolar ham mulk sifatida qayd etilgan. Shuni alohida qayd etish joizki, bu ro‘yxatga amirning Eski Buxoro va Registondagi boyliklarining eng asosiylari kirgan, xolos. Shu narsa ma’lumki,

odatda Amirga yaqin kishilarning boyliklari ham xazinaga daxldor deb hisoblangan. Binobarin, amirlik qozikalonning boyligi quyidagicha miqdorda bo'lgan: Gamburg tillasi yombilari – 38 pud (608 kg), tilla buyumlar – 85 pud (1 tonna 360 kg), kumush buyumlar – 90 pud (1 tonna 440 kg) kumush yombilar – 14 pud (324 kg), brilliantlar – 920 karat, qimmatli toshlar – 14 pud-u 8 funt (bir funt – 400 gramm), o'ris tilla tangalari – 865 000 so'm, chet el tilla tangalari – 4468 to'plam (bir necha 10,20,50,100 hatto, ming tanga ham bo'lishi mumkin). Buxoro tillalari 289014 to'plam, Buxoro tangalari – 7 million 149156 to'plam, o'ris banki kumushlari – 128987 so'm. Mana shunday katta miqdordagi dunyoda tengi yo'q oltin xazinasini va qimmatbaho dur-u durdonalar Rossiyaga olib ketildi va talandi. Hujjatlarda Frunze Rossiyaga olib ketgan oltin va boshqa javohirlarning miqdori haqida aniq ma'lumot yo'q. Ba'zi bir ma'lumotlarga ko'ra Frunze Moskvaga olib ketgan oltinlar har biri o'n, o'n uchdan kam bo'lmagan vagonlardan iborat bir necha poyezdga joylashtirilgan. Bu ham yetmagandek hokimiyat tepasiga kelgan “Yosh buxoroliklar” M.V.Frunzega o'z minnatdorchiliklarini bildirish uchun amirning o'ta nodir oltin qilichi va xanjarini ham sovg'a qilib berib yubordilar. Amir Olimxonning otasi qo'lida 22 yil xazinabon bo'lgan Fayzullo Xo'ja To'qsoba Muhammadiyevning guvohlik berishicha xazina talab ketilgandan bir oydan keyin RSFSR vakillari kelib, uni chaqirtirib xazinaning qolgan qismini topib berishni talab qilganlar. Shundan so'ng u Buxoro sovet hukumati rahbarlarining iltimosiga ko'ra rus vakillariga Frunze askarlari oltin qazib olgan avvalgi joylarni ko'rsatib ularni chalg'itadi. Sobiq xazinabon bu voqeadan oradan bir oy vaqt o'tgach bosqinchilardan qolgan xazinani Buxoro hukumati rahbarlariga topib bergan. Shu narsa ham ma'lumki, qizil armiya Frunze qo'mondonligida faqat Buxorodagi amirlik oltin xazinasini bilangina cheklanmaydi. U bekliklarda saqlanayotgan oltin va boshqa boyliklarni ham talaydi. Masalan, qizil armiya Nurota, Xatirchi va Karmana bekliklaridan 1012 pud (ya'ni 16 tonna 192 kg) oltin va boshqa qimmatbaho durdonalarni tortib olganligi ma'lum. Qizil armiya Buxoroning shahar va qishloqlaridan aholi qo'lidagi boyliklarni ham talaganligi haqida

ma'lumotlar ko'p. Munavvarqori o'z xotira asarida bunday deb yozgan edi: "Qizil armiya askarlari Sharqiy Buxoroda... otlarini masjidlarga bog'lab qo'yib, o'zlari uyma-uy yurib talonchilik bilan shug'ullanmoqda". Amir Sayid Olimxon Rossiya banklariga ham katta miqdorda pul qo'ygan edi. Shuningdek, qog'oz ishlab chiqarish fabrikasi va boshqa manufaktura aksiyalarini sotib olish uchun oltin miqdorida Petrogradga 33 million, Rus-Buxoro aksionerlik jamiyatiga 3.5 million so'm pul o'tkazgan edi. Bularning hammasi ham rus hukumati qo'liga o'tdi. Amir o'zi bilan olib ketgan boyliklar haqida har xil ma'lumotlar bor. Ularning birida amir 2000 karat brilliant va oltin (jami 18 qop) olib ketgan deb ko'rsatilsa, boshqasida ularning miqdori 10–15 million so'm deb ko'rsatiladi. Bularning ham bir qismi yo'lda, G'ijduvon tumanida qizil armiya bo'limi bilan bo'lgan to'qnashuvda tortib olingan, degan ma'lumot ham bor [2. – B. 180-183].

Agarda Olimxon tujjor oilasida tug'ilganda yo savdogar, yoki jadid bo'lib yetishardi. Albatta, bu o'rinda amirni kamchilikdan xoli shaxs sifatida tasvirlash xato. Amir Said Olimxon qahramon emasdi. Ammo bu shaxsni xoin ham deb bo'lmaydi. Davr, vaziyat taqozosi bilan Buxorodan chiqib ketsa ham, Olimxon qizillarga qarshi jismonan va ma'nan jangni davom ettirdi.

Tarixni tarixiy shaxslarning yutuqlaridan namuna, kamchiliklaridan esa saboq olgan holda xolisona o'rganish lozim. Tarix bu yaxshi, bu yomon deb emas balki undan xulosa chiqargan holda tahlil qilinadi [4].

Xulosa qilib shuni ayta olamanki, Amir Olimxon faqatgina o'zini o'ylamay, o'z manfaatlarini yuzasidan Afg'onistonga ketmagan. Tarixchi olimlarimizning o'rganishi natijasida, Amir Olimxon shaxsiyatiga ko'p to'xtalishgan. Shunda uning ketishiga asosiy sabab qilib, Buxorodagi muqaddas joylar, qadamjolar, ko'hna va boqiy inshootlarning buzilib, kelasi avlodga yo'qolib ketish xavfini oldini olgani ko'rsatiladi. Amir Olimxon 1921-yil 4-martda Chubek degan kechuvdan Afg'onistonga o'tib ketadi. Afg'oniston amiri Omonulloxon Said Olimxonga Kobul yaqinidagi bog'i – Qal'ayi Fatudan joy ajratgan, unga homiylik qilgan. Ma'lumotlarga qaraganda, Said Olimxon Omonulloxonga minnatdorchilik

sifatida oltin kamarini sovg'a qilgan. Said Olimxon Afg'onistonda bo'lgan paytida ham yurt ishqida yonib kuygan amir edi. U hatto o'ziga tegishli, qimmatbaho barcha narsalarini sotib, pulini Buxorodagi qizil askarlarga qarshi janglarni olib borayotgan qo'rboshilarga askarlarni qurol-yarog'i, oziq-ovqati bilan ta'minlash uchun yetkazib turgan. Aslini olganda buning o'zi ham katta jasorat. Sayyid Amir Olimxon – Vatandan uzoqda, yurt ishqida yonib-kuyib jon bergan so'nggi Buxoro amiridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Eshov B. O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. – T.: Yangi asr avlodi, 2012.
2. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. III kitob. – T.: Sharq, 2010.
3. Амир Саййид Олимхон. Бухоро халкининг ҳасрати тарихи. -Т.: Фан, 1991.
4. <https://oyina.uz/uz/article/2630>